O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2026-5/5
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi

Xiva-2026

Siddiqova K.R. "Olma" konseptining poetik matnlardagi qiyosiy konseptual tahlili 105
Sobirova R.X. Badiiy matnlarda tarjimonlik mahorati 109
Tog'ayqulova S. O'zbek lingvistikasida parallel korpusning nazariy asoslari 112
Turaev A.A. Tibbiy diskursda patologik va diagnostik terminlarning nazariy-metodologik asoslari 115
Turdiyev N.I. Tanqidiy realizmning genezisi va evolyutsiyasi 117
Tursunova N.Sh. Ingliz va o'zbek topishmoqlarining qiyosiy sotsiolingvistik tahlili 120
Tuxtasinova Z.M. O'zbek tilida "haqorat" konseptosferasiga berilgan ta'riflar tahlili 122
Umarova S.S. Stylistic parallelism and the interpretation of gender identity in uzbek and english literature 125
Umarqulova M.B. Translating problems of color-related phrases in uzbek and english languages: a linguacultural perspective 128
Umirqulova M.B. The pragmatic function of compliments in regulatory frameworks: a typological analysis 130
Uralova N.A. O'zbek pazandachiligi lingvomadaniy konsept sifatida: milliy oshxonaning o'ziga xos xususiyatlari va madaniy kodlari 133
Usmonova O.S. Ikki tilli lug'at yaratishning lingvistik va funksional xususiyatlari 135
Xamroyeva S.M. Asar kompozitsiyasini tuzishda yozuvchi mahorati 137
Xasanova M.J. Xiva adabiy muhitida qasida janri 141
Xo'jamberdiyeva G.Z. Saida Zunnunova she'rlarida jonlantirishning badiiy - estetik vazifasi 145
Xo'janiyazova Sh.S. "Sab'ai Sayyor" dostonidagi pul qiymatini ifodalovchi numerativlar 147
Xo'janiyozov J.X. Erpo'lat Baxt she'riyatida intertekstuallik va allyuziya hodisasi tahlili 149
Xodjayeva G.B., Annaxasanova I.B. A comparative study of metaphors in uzbek and english political discourse 152
Xo'jayeva Sh. Alisher Navoiy ruboiylarida badiiy tasvir vositalari va vaznning poetik g'oya ifodasidagi o'rni 155
Xolbutayev G'.O. Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya 159
Xoliyarov L.T. Fridrix Axlaytner ijodida adabiyot va me'morchilik sintezi: avangard tafakkur hamda "Quadratroman" asarining poetik xususiyatlari 163
Xallokova X.Sh. Ingliz va o'zbek frazeologiyasida rang tasvirga oid iboralarning kontekstual xarakteristikasi 165
Xolmo'minova M. Xalq o'yinlar leksikasi 168
Xudayberdiyev A.A. Jadid matbuoti va ta'lim muhiti orqali o'zbek–tatar adabiy aloqalarining modern o'zbek hikoyachiligi shakllanishiga ta'siri 171
Xudoyberdiyev J.L. Amerika va o'zbek ma'rifatparvar ijodkorlarning adabiy-siyosiy jarayonga munosabati 175
Xujakulova M.X. Onomastikada ideonim tushunchasi va uning nazariy tadqiqi 179
Xusainova Sh.E. Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" asari va uning ingliz tiliga tarjimasida sharq antroponimlarining ingliz tiliga tarjimasi tahlili 183
Yadigarova S.B. National and cultural identity in 20th-century american literature 186
Zaripov B. O'zbek tilida "qadriyat" mazmuniy maydonining mikrosistemalari va iyerarxik tasnifi 188
Zubaydullayeva S.F. Moda industriyasi tilining leksik va uslubiy xususiyatlari 191
Адыгезалова М.Н. Трагический образ женщины в драме Г. Джавида «Афет» 194
Асадова Н.Б., Баходирова Ш.И., Нарзуллаева Г.А., Бекназарова М. К. Эволюция римской системы летосчисления: лингвистический и историко-культурный аспекты 196
Ахарова Ф.Б. Мавжуд коннотация тушунчалари ҳамда коннотациянинг тузилиши 199
Ачилова Д.К. Бадиий таржимада миллий колоритни сақлашда реалияларнинг ўрни ва уларни таржима қилиш муаммолари 202

Dilimni imosiz anglagan do'stim.

Keltirilgan misolda esa jonlantirish subyekti- qog‘oz jonlantirish asosi - kar va soqov jonlantirish qiyosi verbal ifodaga ega emas. Bu misolimizda ham jumladagi yashirin propozitsiya orqali odam kabi jonlantirish qiyosini ilg‘ash mumkin. Keltirilgan misol boshqa misollardan farqli o‘laroq, shoira endi she'riyatga, ijodga murojaat etadi. She'rsiz, qobilyatsiz qog‘oz ham kar va soqov bo‘lishini aytib o‘tadi. Inson yolg‘iz qolganida go‘yo o‘zi bilan o‘zi suxbat quradi. Mana shu suhbat mobaynida o‘z dard alamlarini o‘rtaga tashlaydi va mana shu dard qog‘ozga tushib, she'riy misralar paydo bo‘ladi. Shoira ham she'riyat dunyosini ortiqcha imo-ishoralarsiz, sukunat bilan anglagan do‘stim deya ta'rif etadi.

M.Yo‘ldashev jonlantirishlarni ot so‘z turkumi doirasida belgilaydi. L. Jalolova esa, ularni fe'l so'z turkumi doirasida izohlaydi [l,92].

Bizningcha jonlantirishlar ot va fe'l so‘z turkumining o‘zaro sintagmatik munosabatidan hosil bo‘ladi.

4.Tabiat hodisalari jonlantiriladi.

Sharpang keltirolmay o‘z qanotida,

Shamol xushtagida yig‘laydi o‘kinch

Keltirilgan misolda shoira tabiat hodisalaridan biri bo‘lmish shamol orqali jonlantirish san'atining go‘zal namunasini yaratgan. Barchamizga ma'lumkishamolning turli xil tovushlar bilan o‘z yo‘nalishining o‘zgartirishini

Xulosa.

Aniq otlarni jonlantirish	***Mavhum otlarni jonlantirish***	***Jonsiz predmetlarni jonlantirish***	***Tabiat hodisalarini jonlantirish***
Yulduzlar charchamadi	O**‘kinch yig‘laydi**	Kar qog**‘oz**	**O‘ch olgan tabiat**
She'r kayfi	Ishonch uxlatardi	Soqov qog**‘oz**	Shamol xushtagi
Oftob berkinsin	Xayol yulib olib		
	Dilim g**‘**ijimlanib		

Shoira she'rlarida qo‘llanilgan jonlantirishlami quyidagi jadval orqali yanada yorqinroq ko‘rishimiz mumkin tinglovchiga kuchli ta'sir etuvchi jonlantirishlarni ko‘plab kuzatish mumkin. Shoira ijodida bu kabi ementlarning qo‘llanilishi she'r mazmuniga o‘zgacha mazmun yuklab, uning badiiy-estetik vazifalarini oshirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Hasanov A. Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini ta'minlovchi leksik vositalar. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent, 2009.

2. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o‘zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Andijon, 2003.

3. Saida Zunnunova. She'rlar. - Toshkent, 1982.

4.Tursunova O. O‘zbek tili fonetik birliklarining poetik imkoniyatlari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Farg'ona, 2019.

5. Toshxo‘jayeva Sh. Erkin A'zam asarlari lingvopoetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.-Farg‘ona,2017.

6.Yo‘ldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. -Toshkent. 20077. Shadiyeva D. Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent, 2007.

UO'K 821.512.2:336.1:81.23

"SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDAGI PUL QIYMATINI IFODALOVCHI NUMERATIVLAR

Sh.S.Xo‘janiyazova, dots., PhD, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub "Sab'ai sayyor" dostoni tilida uchraydigan* ***pul qiymatini ifodalaydigan numerativ birliklar*** *lingvistik va semantik jihatdan tahlil qilindi. Asarda qo‘llangan hisob so‘zlar o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, tadqiqotda pul miqdorini bildiruvchi leksik birliklar tarixiy-etimologik jihatdan ham ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *oltin, kumush, muzd, vajh, javohir, numerativ.*

Аннотация. *В данной статье проведён лингвистический и семантический анализ числительных единиц, выражающих стоимость денег, встречающихся в языке поэмы "Сабъаи Сайёр (Семь скитальцев)", принадлежащей Алишеру Навои. Используемые в произведении счётные слова дают представление о социально-экономическом образе жизни того времени. Кроме того, в исследовании раскрыты лексические единицы, обозначающие денежные суммы, с историко-этимологической точки зрения.*

Ключевые слова: *золото, серебро, вознаграждение, цена, драгоценности, числительные.*

Abstract. *This article provides a linguistic and semantic analysis of numerative units expressing monetary value found in the language of the epic "Sab'ai Sayyor" written by Alisher Navoi. The counting words used in the work offer insights into the socio-economic lifestyle of that period. Additionally, the study explores the lexical units denoting monetary amounts from a historical and etymological perspective.*

Key words: *gold, silver, muzd, vajh, javohir, numerical.*

Numerativlar kishilik jamiyatida kundalik muomalada qo'llanadigan me'yor-o'lchov tushunchasini ifodalovchi so'zlardir. O'zbek tilida qo'llanuvchi numerativlar bo'yicha A.N.Kononov, V.V.Reshetov, A.Borovkov [1], ularni semantik jihatdan S.Nizomiddinova, X.Komilova, P.Hamdamov, M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar [2] guruhlarga ajratib tasniflashgan. N.Jiyanova o'z tadqiqotida "Boburnima"da qo'llangan numerativ birliklarni aniqlagan hamda ularni 13 ta faslga ajratib o'rgangan [3].

Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidagi pul qiymatini ifodalovchi numerativlar badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirish, miqdor va qiymatni aniqlashtirish bilan birga, ramziy ma'nolarni ham yuzaga chiqargan. Doston tilida pul qiymatini anglatuvchi numerativlar: *oltin, kumush, muzd, vajh, javohir, diram, dur, la'l, yoqut* va hokozo.

Qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning ilk yodnomalari hamda XII - XIV asr uyg'ur huquqiy hujjatlarida *oltin* atamasi "tilla"; "tilla tanga"; "tilladan qilingan, tilla bilan qoplangan" ma'nolarini bildirgan [4]. *Oltun* so'zi sinxronik nuqtai nazardan sodda, tub deb izohlangani holda, diaxronik nuqtai nazardan tarixan sintaktik usulda yasalgan so'zdir. Ya'ni *oltun* so'zi turkiy *ol* "qizil"; xitoycha *tun//tung* "mis" so'zlaridan shakllangan bo'lib "qizil mis" ma'nosini anglatadi [5].

"Mendeleyev davriy sistemasining birinchi guruhiga mansub kimyoviy element; sariq-qizg'ish tusli qimmatbaho nodir metal; zar: tilla" ma'nosidagi *oltin* leksemasi (O'TIL, III, 118) qadimgi turkiy tilda "altun" (DLT, I, 18), eski o'zbek adabiy tilida: 1) oltin tanga, oltin: pul birligi; 2) qimmatbaho, bebaho (ANATIL, II, 519) ma'nolarida ishlatilgan. E. Sevortyanning fikricha, *altun - altïn* qo'shma so'z bo'lib, *al* "qizil", *tun<ton* "mis" so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan (ESTYA, I,142). Ushbu leksema dastlab Yenesey yodgorliklarida *aqcha* shaklida "tanga, pul" semasini ifodalagan (DTS,48). Doston matnida quyidagicha:

1) oltin tanga, oltin: pul birligi: *Sochib **oltun** quyosh kibi behad,*
Bo'ldi manzilgahi sarig' gunbad (428).
2) qimmatbaho, bebaho: *Kunduz etti qaro, sarig' to'nini,*
*Kun siyahtob qildi **oltun**ini(429).*

"Kumush, tanga" (ANATIL, II, 137) ma'nosidagi *kumush* leksemasi qadimgi turkiy tilda *kőműsh* tarzida talaffuz qilinib, "oq rangli qimmatbaho ma'dan" semasida ishlatilgan (PDP, 397; Devon, I, 351; DTS, 326), o'zbek tilida *o'* unlining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: *kőműsh>kumush*. Mazkur hisob so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida ma'no kengayishga uchrab bir qancha ma'nolarda ishlatilmoqda: 1) Mendeleyev davriy sistemasining birinchi guruhiga mansub kimyoviy element; oq-ko'kish rangli yaltiroq, asl metal; 2) kumushdan ishlangan, kumushdan ishlatilgan; 3) Kumush-xotin-qizlar ismi (O'TIL, II, 427-428). Asar tilida tubandagicha:

Vazn aro tengdur ulcha naqd olmish,
*Lek oltun aro **kumush** solmish (433).*

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *diram* o‘zlashmasi “kumush pul; og‘irlik o‘lchov birligi”, “Buxoro xonligida Eron, Iroq, Afg‘oniston va Turkiyada pul birligi”; “tanga, pul” (O‘TIL, I, 625), eski o‘zbek adabiy tilida “diram, tanga: kumush tanga” (ANATIL, I, 493) ma’nolarida qo‘llangan:

***Diramu** mol beadad berdi,*
La’lu dur beqiyosu had berdi (417).

Arabcha “qizil rangli tosh; yoqut” (O‘TIL, II, 491) ma’nosidagi *la’l* istilohi *la’l(un)* shaklida uchraydi (ARS, 723). Navoiy asarlari tilida: 1) qizil rangli qimmatbaho tosh; 2) qip-qizil lab, sevgilining labi; 3) bezak, bo‘yoq; 4) manfaat; 5) qizil rangli may; 6) nodir, qimmatli, topilmas (ANATIL, II, 169-171) ma’nolarida qo‘llangan:

1) qizil rangli qimmatbaho tosh: *Har sifat tuhfasi nihoyatsiz,*
*Bebaho **la’lu** durri g‘oyatsiz (345).*
2) qip-qizil lab, sevgilining labi: ***La’li** quflidin ochti gulrux band,*
Nuktadin zohir ayladi gulqand (426).
3) bezak, bo‘yoq; *To‘rt yuz qul kamar bazar bori,*
***La’lu** durdin bezab kamar bori(456).*

Arabcha *vajh* istilohi “sabab, bois, vosita” ma’nosini anglatuvchi (O‘TIL, I, 432) *vajh I* hisob so‘zi “mablag‘, pul, mol, narsa”, “obro‘, izzat, hurmat; boylik”, “narx qiymat” (ANATIl, I, 351) sememasidagi *vajh II* bilan omonimikni yuzaga keltirgan:

Chunki Xorazm shahig‘a yetti misol,
***Vajh** berdi xizonadin filhol (601).*

Yuqorida keltirilgan misradan shuni kuzatish mumkinki, *vajh* leksemasi faqat “mablag‘, pul, mol, narsa” ma’nosida qo‘llangan. Shuningdek, mazkur so‘z hozirgi kunga kelib ma’no torayish hodisasiga uchragan (O‘TIL, I, 432).

Xullas, “Sab’ai sayyor” dostonidagi pul qiymatini ifodalovchi leksik birliklar: *la’l, vajh* so’zlari denotativ ma’nodan tashqari numerativ mazmunidan ham foydalanganligidan dalolat beradi. Dostondagi ushbu leksik qatlam o‘zbek tili tarixini, xususan, eski o‘zbek adabiy tili manbalarida iqtisodiy istilohlarning konnotativ mazmunda qo‘llanilishi, lekin bu leksemalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida numerativlik vazifasida ishlatilmasligini kuzatishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Alisher Navoiy X jildlik, VII jild. Sab’ai sayyor. – Toshkent. 2013. – 275- 639 b.
2. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий”лекцикаси. Филол. фан. док. … дисс. – Тошкент, 2017. –Б.161.
3. Боровков А. Краткий очерк грамматики узбекского языка. – Москва, 1959. – 700 с.
4. Жиянов Н. “Бобурнома”даги нумеративларнинг маъно хусусиятлари. Филол. фан. ном. …дис. – Тошкент, 2000. –135 б.
5. Комилова Х. Ўзбек тилида сон ва олмош. –Тошкент, 1953.
6. Кононов А.Н. Грамматика современного туреского литературного языка. –Москва: Изд-во АН, 1956. – 569 с.
7. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. –Toshkent, 1962. –255 b.
8. Молчанова Л.А. Народная метрология к истории народных мер длины. – Минск, 1973. – С. 210.
9. Низомиддинова С. Ҳозирги ўзбек адабий тилида сон. –Тошкент: Фан, 1963. – 96 б.
10. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. –Ташкент: Учитель, 1965. –244 с.
11. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1965. –180 б.
12. Тўйчибоев Б. Яйлов, қишлов керага ва олтин сўзларининг шаклланиши// Ўзбек тили ва адабиёти. 2000. №3. –Б.69.
13. Ҳамдамов П. Ўзбек тилида нумеративлар. – Тошкент: Фан, 1953. –108 б.

UO’K 82-1:82-94:81'42

ERPO‘LAT BAXT SHE’RIYATIDA INTERTEKSTUALLIK VA ALLYUZIYA HODISASI TAHLILI

J.X.Xo‘janiyozov, o‘qituvchi, Ma’mun universiteti, Xiva
https://orcid.org/0009-0003-2888-0011

***Annotatsiya.** Ushbu maqola shoir Erpo‘lat Baxt she’riyatida antroponimlarning intertekstuallik va allyuziya hodisasi sifatidagi o‘rni tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada badiiy matn*